

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

Qo‘lyozma huquqi asosida

RADJAPOV MUHAMMADJON ERGASH O‘G‘LI

**MAVZU: O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA SIYOSATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

Mutaxassislik: 70410401- “DAVLAT MOLIYASI VA XALQARO MOLIYA”

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA


Ilmiy rahbar i.f.n., dotsent. N.T. Tilabov

TOSHKENT – 2024

Magisterlik dissertatsiya ishi “Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

_____ -sonli bayonnnomasi “ _____ ” _____ 2024 y.

Kafedra mudiri, prof. X.Xudoyqulov




imzo

sana

Ilmiy raxbar:

N.Tilabov




imzo

sana

Talaba:

M.Radjabov



imzo

sana

Dissertatsiya magistratura bo‘limida 2024 yil “ _____ ” _____

№ _____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Annotatsiya

Mamlakatimiz investitsiya siyosatida tadbirkorlar, jumladan investor va tashqi savdo faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni har qanday huquqiy-demokratik davlatlar qatorida o'z oldiga eng asosiy vazifalardan biri sifatida qo'yadi. Bu esa, tadbirkorlik subyektlari bilan doimiy ishlovchi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda nazorat idoralarida qonuniylikni ta'minlash, tadbirkorlar faoliyatiga davlat organlarining aralashuvini tubdan qisqartirish, huquqbuzarliklar hamda korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish borasidagi faoliyatini yanada kuchaytirishni talab etadi.

Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishni jadal sur'atlarini ta'minlash va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishda puxta o'ylangan investitsiya siyosatini muhim ahamiyat kasb etishi, investitsiyalar iqtisodiyot taraqqiyotning muhim omili sifatida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilanishlar va innovatsiyalarni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda korxonalar daromadini oshirishni va iqtisodiy o'sishni ta'minlashi dissertatsiya ishimizda bayon qilingan.

Abstract

Protection of the rights and legal interests of entrepreneurs, including investors and subjects of foreign trade activities, is one of the main tasks of our country in the investment policy of any legal democratic country. This requires ensuring legality in state power and management bodies and control agencies that work with business entities, radically reducing the intervention of state bodies in the activities of entrepreneurs, and further strengthening their activities in terms of early prevention of violations and cases of corruption.

A well-thought-out investment policy is important in ensuring the rapid pace of economic development and maintaining macroeconomic stability in our republic, investments are an important factor in economic development, modernization of production, stimulation of technical and technological updates and innovations, creation of new jobs, and increase in the income of enterprises and economic growth described in our dissertation work.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----------|
| Annotatsiya..... | 3 |
| Mundarija..... | 5 |
| Keltirilgan jadvallar ro'yxati..... | 7 |
| Keltirilgan rasmlar ro'yxati..... | 8 |
| Keltirilgan qisqartmalar..... | 9 |
| I BOB KIRISH..... | 10 |
| 1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi... | 10 |
| 1.2 Tadqiqot maqsadi va vazifalari..... | 11 |
| 1.3 Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari..... | 12 |
| 1.4 Tadqiqotning ob'yekti va predmeti..... | 14 |
| 1.5 Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati... | 14 |
| 1.6 Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi..... | 14 |
| II BOB ADABIYOTLAR SHARHI..... | 16 |
| 2.1 Kirish..... | 16 |
| 2.2 Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi..... | 24 |
| 2.3 Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi..... | 27 |
| 2.4 Xulosa..... | 34 |
| III BOB METADOLOGIYA..... | 35 |
| 3.1 Tadqiqot dizayni..... | 35 |
| 3.2 Ma'lumotlarni to'plash jarayoni..... | 35 |
| 3.3 Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar..... | 35 |
| 3.4 Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur shart sharoitlar..... | 36 |
| 3.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi..... | 36 |
| 3.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar..... | 36 |
| IV BOB TAHLIL VA NATIJALAR..... | 37 |

| | | |
|--------------|--|-----------|
| 4.1 | Mamlakatimizda investitsiya siyosatining hozirgi holati tahlili..... | 37 |
| 4.2 | Investitsiyalar asosida tashkil etilgan qo'shma korxonalarining investitsion faoliyati samaradorligi tahlili.... | 45 |
| 4.3 | Tahlillardan olingan natijalar sharhi..... | 57 |
| V BOB | XULOSA | 58 |
| 5.1 | Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi..... | 58 |
| 5.2 | Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari..... | 67 |
| 5.3 | Tadqiqot cheklolari va kelgusi tadqiqot uchun takliflar..... | 73 |
| | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..... | 77 |

I BOB. Kirish

Bugungi kunda davlatlarning ichki iqtisodiy-moliyaviy holatini oshirish uchun mamlakatga kiritiladigan investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. Kiritiladigan kapitallar hajmini oshirish yoki samaradorligini ta'minlash O'zbekistonda endi rivojlanib borayotgan davlatlar uchun suv va havodek zarur vositadir. Albatta, ushbu sohada qandaydir yutuqlarga erishishni xorij ko'nikmalarini o'rganmasdan, ulardan foydalanmasdan va amaliyotga tatbiq etmasdan turib bo'lmaydi, zero hech qaysi davlat yakka va boshqa davlatlardan uzilgan holda, o'zi rivojlanishi haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Endi rivojlanib borayotgan davlatning ushbu sohada shiddat bilan ildamlashini e'tiborga oladigan bo'lsak, O'zbekistonda hali bu sohada qilinadigan ishlar ko'pligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda investorlarning mamlakatga yetarlicha huquqiy ishonchi bo'lmasa, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishda muammolarga duch kelishadi. Ushbu sohada keyingi besh yilda qilinadigan ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tog'risida"gi PF-60-son Farmoni qabul qilindi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan strategiyadan ko'zlangan maqsad – inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligini tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashdan iborat [Farmon 2022].

Ushbu me'yoriy hujjatga ko'ra ushbu yillar davomida O'zbekiston hukumati to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni o'zining asosiy siyosati, ustuvor yo'nalishlaridan biri deb e'lon qildi va yuqori iqtisodiy o'sish hamda investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb etish dinamikasini oshirish orqali mavjud ijtimoiy muammolarni xususan, ishsizlik va qashshoqlik darajasini hal etish mumkinligi belgilab qo'yildi. 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi Soliq kodeksi orqali yuridik shaxslar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i qariyb 50 foizga pasaytirildi va xususiy tadbirkorlar uchun soliqqa tortish tartiblari esa sezilarli